



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

YOSH AVLODNI MILLIY G'OYA RUHIDA TARBİYALASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Avazova Xushro'yibibi Kamolitdin qizi

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola milliy g'oyaning mazmun-mohiyati hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni, bu boradagi dolzarb vazifalarga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, yosh avlod, milliy g'oya, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim va tarbiya interfaol o'qitish metodlari, "Aqliy hujum", "Ajurli arra".*

Sir emaski, bugun, biz yashayotgan XXI asrda ta'lim-tarbiyaga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezilmoqda. Bugun tinchligimizga, mustaqilligimizga tahdid soluvchi, fuqarolar, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va qalbini egallashga qaratilgan zararli g'oyalarning xavfi yadro maydonidagi xavfdan ham ortiq. Bunday xavfni faqat va faqat yetuk tarbiya bilangina bartaraf etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, "taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"(2).

Demak, yosh avlodning jismonan va ma'n'an sog'lom, yuqori intellektual salohiyatli insonlar bo'lib voyaga yetishida, ularga puxta bilim berilishida, ularda milliy o'zlikni shakllantirishdagi eng muhim va samarali omillarlardan biri – bu ta'lim-tarbiya omilidir. Kishilarni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash ishlari barcha zamonlarda ta'lim va tarbiya orqali amalga oshirib kelingan.

Shu bois mamlakatimiz Prezidenti "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV-qurultoyida gapni tarbiyadan boshlab, jumladan shunday degandi: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda".

Ushbu qurultoyda yurtboshimiz yana quyidagi fikrlarni ham bildirib o'tdilar: "Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"(1).



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Haqiqatan ham tarbiya mukammal bo'lsa millat farzandlari qalbida bo'shliq bo'lmaydi. Buning uchun ularning g'oyasi kuchli bo'lishi kerak.

Insoniyat tarixining ko'p asrlik tajribasi biron-bir jamiyat ezgu g'oyalar va mafkurasiz taraqqiy eta olmasligini tasdiqlab kelmoqda. Zero, odamning qalbi, ongi, ruhi va shuuri ko'pdan-ko'p savollarga javob bo'ladigan, doimiy faoliyatga undab turadigan hayotbaxsh g'oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Bugungi kunda bu ehtiyojni faqat milliy g'oyamiz bilan qondirishimiz mumkin.

Demak, milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini bugun har birimiz chuqur anglashimiz zarur. Chunki har bir millat, davlat, jamiyat va insonning o'zligini anglashi va taraqqiyotga erishishi milliy g'oyaning hayotiyliigi hamda amaliyotda to'laligicha aks etishiga bog'liq. Xo'sh, o'zligimizni anglashning va taraqqiyotimizning kafolati hisoblanadigan milliy g'oya o'zi nima? Ushbu savolga turli lug'atlarda berilgan ta'riflardan kelib chiqib shunday javob berish mumkin:

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli(4).

Milliy g'oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui(4).

Milliy g'oya – millatni, xalqni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi ulug'vor fikrdir(3).

O'z o'rnida ta'lim dargohlarida ta'lim va tarbiya olayotgan yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga ham yordam beradi.

Bugungi kunda o'qitish tizimidagi eng samarali interfaol o'qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi: "Sinkveyn", "Klaster", "Charxpalak", "Aqliy hujum", "Skrabey", "Ikki qismli kundalik", "Venn Diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Juftliklarda ishlash", "Beshinchisi ortiqcha", "Nuqtai nazaring bo'lsin", "Tanqidiy tafakkur" va h.k.

Masalan, "Aqliy hujum" metodi. Bu metod orqali ta'lim oluvchilarga savollarni berish bilan o'qituvchi avvalo o'tgan darslarni mustahkamlaydi, yangi mavzuni oydinlashtiradi, mavzulararo bog'lanishga erishadi, ta'lim oluvchilarda erkin fikr, mustaqil dunyoqarashni shakllantirib, fikrlarni zudlik bilan jamlash, tez, aniq va lo'nda javob berish, vaziyatni to'g'ri baholash kabi ko'nikmalarni uyg'otadi.

Dars jarayonida "Aqliy hujum"dan maqsadli foydalanish ijodiy, andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida, ishlab chiqarish mammlari yechimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig'ilib, ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirishadi. Bu bosqichda hech



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

kimning o'zgalari g'oyasiga "hujum" qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, "Aqliy hujum"da qisqa vaqtda o'nlab g'oyalarning yuzaga kelishi imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslida, g'oyalar soni maqsad emas, ular muammo yechimi uchungina asos bo'ladi. Bu metod shartlaridan biri qatnashuvchilarning har biri tashqi ta'sirsiz faol ishtirokchi bo'lishi kerak.

"Aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, saniga e'tibor qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyani mumkin qadar mukammallashtirish va rivojlantirish mumkin;
- muammo yechimidan g'oyalari ham qo'llab quvvatlanadi;
- barcha g'oyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;
- "hujum" vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutiladi.

"Aqliy hujum" metodi qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengaytirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh (auditoriya yoki sinf) yanada jipslashadi.

Ta'lim oluvchi yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbilalashga yo'naltirilgan metodlardan yana biri "Nuqtai nazaring bo'lsin" metodi bo'lib, bu metod yordamida ta'lim oluvchilar muayyan muammoga o'z nuqtai nazarini asosli dalillab, himoya qilishga o'rganadilar.

Bu metodning asosiy maqsadi ta'lim oluvchiga muammo muhokamasi jarayonida o'z fikrini o'zgartirish imkonini berish hisoblanadi. Bunda o'qituvchi barcha ta'lim oluvchilarni munozaraga jalb etishi va tadbirda ishtirok etayotgan hamma ta'lim oluvchilar o'rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

"Nuqtai nazaring bo'lsin" metodi ta'lim oluvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o'z fikrlarini o'z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o'zgartirishga ishontiradigan g'oyalarni eshitib o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo'llanadi. Ta'lim oluvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo'lgan eng dolzarb muammolar o'z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar.

"Tanqidiy tafakkur" metodi esa ta'lim oluvchining qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilishi, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etishi, o'z nuqtai nazarini asoslab berishi va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. Odatda bunday zarurat munozara xarakteriga ega masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi.

Xullas, yangi pedagogik texnologiyalarning qaysi birini qo'llashidan qat'iy nazar eng avvalo o'qituvchi mavzuning to'la-to'kis mohiyatini ochib beruvchi o'z ma'ruzasiga ham asosiy e'tiborni qaratishi zarur bo'ladi. Muhimi, o'qituvchining ma'ruzasi har qanday bo'rttirishlardan xoli bo'lishi, misollar hayotdan olinishi, ta'lim oluvchida mavzudan zerikish emas, aksincha unga bo'lgan qiziqishni orttira olishi lozim.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017 yil, 30 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//Xalq so'zi, 2020-yil, 1-oktyabr.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'FMJ, 2004 yil,188-bet.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: F.Гулом nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 yil,410-bet.